

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Valijonova Shaxzoda

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH 6-9

Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK
MOSLASHTIRISH ALGORITMI 10-15

Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI 16-19

IQTISODIYOT FANLARI

G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 20-24

FALSAFA FANLARI

Парниева Айгуль

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ 25-30

FILOLOGIYA FANLARI

Tursunova Farangiz

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI
JIHATLARI 31-33

Jo'rayeva Nozimaxon

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK 34-38

Inatova Jasmina

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI 39-42

Mavjudboyeva Mardona

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI 43-47

Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY
KONTEKSTDA 48-50

Xamidova Go'zal

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI 51-53

Adasheva Durdona

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI	72-77
YURIDIK FANLAR	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI	91-93
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING	144-149

KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR

Abdullayeva Sabohat

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti,

Huquq va texnologiyalar sho 'basi o'qituvchisi

Email: abdullayevasabohat50@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola kriptoaktivlar anonimlik xususiyatining huquqiy tabiatini nazariy va doktrinali jihatdan tahlil qiladi. Blokcheyn texnologiyasiga asoslangan kriptoaktivlar, jumladan, Bitcoin va Ethereum ko'pincha to'liq anonim emas, balki psevdonimligi bilan farqlanadi: tranzaksiyalar ochiq ro'yxatda aks etsa-da, shaxs identifikatsiyasi bevosita ko'rinmaydi. Tadqiqotda anonimlik va maxfiylik tushunchalari farqlangan, mulk huquqi doktrinasi nuqtai nazaridan kriptoaktivlar ustidan huquqiy da'vo qilish muammolari ko'rib chiqilgan. Xalqaro huquqiy tartibga solish, xususan FATF 15-Tavsiyasi, MiCA va UNIDROIT tamoyillarida anonimlikka bo'lgan huquqiy yondashuv tahlil qilingan. Xulosa sifatida kriptoaktivlar anonimligining xususiyati huquqiy tartibga solish va pul yuvishga qarshi kurash o'rtasida muvozanatni taqozo etishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: kriptoaktivlar, anonimlik, psevdonimlik, blokcheyn, mulk huquqi, FATF, AML/KYC, xalqaro huquqiy tartibga solish.

THE LEGAL NATURE OF THE ANONYMITY FEATURE OF CRYPTOASSETS: THEORETICAL AND DOCTRINAL APPROACHES

Abdullaeva Sabokhat

PhD Candidate, Tashkent State University of Law, Lecturer,

Department of Law and Technologies

Annotation. This article analyzes the legal nature of the anonymity feature of cryptoassets from theoretical and doctrinal perspectives. Blockchain-based cryptoassets such as Bitcoin and Ethereum are predominantly pseudo-anonymous rather than truly anonymous: transactions are recorded on a public ledger yet the identity of participants is not directly disclosed. The study distinguishes between anonymity and privacy, examines challenges in asserting property rights over cryptoassets through the lens of property law doctrine, and analyzes the approach of international legal instruments—FATF Recommendation 15, the EU MiCA Regulation, and the UNIDROIT Principles on Digital Assets—toward anonymity. The article concludes that the anonymity characteristic of cryptoassets necessitates a carefully calibrated balance between effective legal regulation and anti-money-laundering compliance.

Keywords: cryptoassets, anonymity, pseudo-anonymity, blockchain, property rights, FATF, AML/KYC, international legal regulation.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n18>

Kirish

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan birga kriptoaktivlar global moliya tizimining muhim segmentiga aylandi. Blokcheyn texnologiyasiga asoslangan bu aktiv sinfi an'anaviy huquqiy kategoriyalarga to'la mos kelmasligi sababli nazariy va doktrinali jihatdan ko'plab munozarali masalalarni yuzaga keltiradi. Shular jumlasidan kriptoaktivlar anonimlik xususiyatining huquqiy tabiati alohida ahamiyat kasb etmoqda: ushbu xususiyat bir tomondan shaxsiy maxfiylik huquqini amalga oshirishning texnologik vositasi sifatida talqin qilinsa, boshqa tomondan pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirish xatarlarini kuchaytiruvchi omil sifatida baholanmoqda [1; B.4].

Anonimlik va psevdononimlik: texnik-huquqiy farqlanish

Ilmiy adabiyotda ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladigan anonimlik va maxfiylik tushunchalari huquqiy tahlil uchun aniq farqlanishni talab etadi. Kriptografiya va axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan anonimlik – sub'ektning shaxsi to'liq yashirin bo'lishi, maxfiylik esa shaxsiy ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor etilmasligi holatidir [2; B.12]. Bitcoin va Ethereum kabi keng tarqalgan kriptoaaktivlarda barcha tranzaksiyalar ochiq reyestrda (public ledger) saqlanadi va umumga ma'lum bo'ladi; biroq, pul jo'natuvchi hamda oluvchining haqiqiy shaxsi bevosita ko'rsatilmaydi. Shu sababdan aksariyat blokcheyn tarmoqlari to'liq anonim emas, balki psevdononimdir [3; B.2].

Ayrim kriptoaaktivlar esa texnologik vositalar orqali ancha yuqori darajadagi anonimlikni ta'minlaydi. Masalan, Monero Ring CT (Confidential Transactions) protokoli asosida tranzaksiyalar aralashtirib yuboriladi va qo'shimcha tahlilsiz manbani aniqlash deyarli imkonsiz bo'ladi [4; B.7]. Bundan tashqari, CoinJoin aralashtiruv mexanizmi va nol bilim isbotlari (zero-knowledge proofs) kabi kriptografik usullar ham identifikatsiyani murakkablashtiradigan vositalar sifatida amaliyotda qo'llanilmoqda [3; B.5]. Ushbu texnologik imkoniyatlarning mavjudligi kriptoaaktivlar anonimligini bir hil huquqiy kategoriyaga solishni qiyinlashtiradi va differensiallashgan doktrinali yondashuvni taqozo etadi.

Mulk huquqi doktrinasi nuqtai nazaridan anonimlik muammosi

Kriptoaaktivlarni mulk ob'ekti sifatida tan olish masalasida yetakchi ilmiy ishlar blokcheyn registrida psevdononimlik tufayli yuzaga keladigan bir qator huquqiy muammolarni qayd etadi. T. Chan tomonidan "Legal Studies" jurnalida chop etilgan tadqiqotda kriptoaaktivlarga nisbatan an'anaviy mulk huquqi qoidalarini qo'llash imkoniyati ko'rib chiqilgan va blokcheynning immutabiligi hamda anonimligining hukm ijrosini murakkablashtirishiga alohida e'tibor qaratilgan [5; B.16]. Mulkiy nizolarda, xususan ruxsatsiz mulkni o'zlashtirish holatlarida, da'vogar mulkiy da'vo qilishi uchun nafaqat belgilangan aktivning kriptoaaktiv ekanligini, balki tegishli hamyon (wallet) ustidan egaligini ham isbotlashi shart bo'ladi [5; B.21].

Shu munosabat bilan tokenizatsiya orqali mulkni raqamlashtirish sohasidagi tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Anonim yoki psevdononimligi bilan tavsiflanadigan blokcheyn tizimlarida hamyon egaliligini isbotlash uchun tomonlar xususiy kalitni (private key) taqdim etishlari zarur, bu esa an'anaviy mulk huquqi isbotlash mexanizmlaridan tubdan farq qiladi [6; B.3]. Bundan tashqari, ko'p imzoli (multi-signature) manzillar yordamida bitta token bir necha kishining umumiy egaligiga o'tishi mumkin bo'lib, bu holat ham huquqiy tartibga solishda qo'shimcha muammolar keltirib chiqaradi.

Xalqaro huquqiy tartibga solish: anonimlikka integrallashgan yondashuvlar

Xalqaro miqyosda kriptoaaktivlar anonimligini tartibga solishda FATF (Moliyaviy harakatlar bo'yicha guruh) hal qiluvchi rol o'ynamoqda. 2019 yilda yangilangan FATF 15-Tavsiyasiga ko'ra, virtual aktivlar va virtual aktiv xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga (VASP) an'anaviy moliyaviy muassasalarga qo'llaniladigan AML/KYC (pul yuvishga qarshi kurash va mijozni tanish) talablari to'liq tatbiq etiladi [7; B.3]. "Sayohat qoidasi" (Travel Rule) deb nomlangan tartibga ko'ra, VASPlar tranzaksiyadagi jo'natuvchi va oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plab, belgilangan chegara miqdordan oshganda ushbu ma'lumotlarni hamkor muassasalarga uzatishlari majburiy hisoblanadi. FATF so'nggi yangilashlarida anonimlikni kuchaytiruvchi texnologiyalarni (anonymity-enhancing technologies) pul yuvish va

terrorizmni moliyalashtirish uchun yuqori xavf omili sifatida alohida ajratib ko'rsatmoqda [8; B.1].

Yevropa Ittifoqi miqyosida 2023 yilda qabul qilingan va 2024 yil dekabr oyida kuchga kirgan MiCA (Markets in Cryptoassets Regulation) kriptofinans xizmat ko'rsatuvchilarni (CASPs) kengaytirilgan KYC, tranzaksiyalarni kuzatish va shubhali faoliyat haqida xabar berish majburiyatlariga tortadi [9; B.1]. MiCA anonimlik xususiyatini bevosita taqiqlamasada, anonim hamyon manzillariga yo'naltirilgan tranzaksiyalar bo'yicha qo'shimcha tekshiruv (enhanced due diligence) talablarini joriy etadi.

Xususiylashtirilgan xalqaro xususiy huquq doktrinasi kontekstida UNIDROIT tomonidan ishlab chiqilgan Raqamli aktivlar va xususiy huquq bo'yicha tamoyillar kriptofinanslarga nisbatan huquqiy aniqlikni mustahkamlash va mulkiy munosabatlarni uyg'unlashtirish yo'lida muhim qadam hisoblanadi. Ushbu tamoyillar psevdonimlik sharoitida mulk huquqini asoslash, undan voz kechish (alienation) va garov sifatida taqdim etish masalalariga maxsus e'tibor qaratadi.

Doktrinali yondashuvlar tasnifi

Ilmiy adabiyot tahlili asosida kriptofinanslar anonimligining huquqiy tabiatiga nisbatan uchta asosiy doktrinali yondashuv ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi yondashuv – instrumentalistik (functional) yondashuv – anonimlikni kriptofinanslarning texnologik xususiyati sifatida baholaydi va huquqiy natijalarni tranzaksiyadagi sub'ektlar emas, balki provayder darajasida tartibga solish orqali erishish lozimligini asoslaydi (FATF Travel Rule modeli). Ikkinchi yondashuv – mulkiy (proprietary) yondashuv – psevdonimlikni mulkiy da'voni asoslash uchun yetarli texnologik vosita deb tan oladi, biroq real shaxs bilan hamyonni bog'lash mexanizmlarini huquqiy jihatdan takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uchinchi yondashuv – muvozanat (balancing) yondashuvi – shaxsiy maxfiylik huquqi va moliyaviy shaffoflik tamoyillarini proporsionallik prinsipi asosida uyg'unlashtirish lozimligini ilgari suradi va EU MiCA, UNIDROIT tamoyillarida ushbu kontseptsiya aniq ko'zga tashlanadi [1; B.9].

Xulosa

Kriptofinanslar anonimlik xususiyatining huquqiy tabiati – bu mutlaq anonimlik emas, balki psevdonimlik fenomeni bo'lib, u bir vaqtning o'zida mulk huquqi doktrinasining yangi sohasi, AML/KYC tartibga solishning ob'ekti va shaxsiy maxfiylik huquqining raqamli davri ko'rinishi sifatida talqin qilinishi lozim. Ilmiy adabiyot va xalqaro huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, anonimlik xususiyatiga nisbatan yagona universal yondashuv hali shakllanmagan; ammo FATF, MiCA va UNIDROIT tamoyillari doirasida uch ustunli doktrina – identifikatsiyani majburiy qilish (identification), xavfga asoslangan tartibga solish (risk-based approach) va shaffoflik muvozanati (transparency balance) – tobora mustahkam asosga ega bo'lmoqda. O'zbekiston kriptofinanslar sohasidagi milliy qonunchiligini rivojlantirishda ushbu xalqaro doktrinali yondashuvlarni hisobga olgan holda, kriptofinanslar anonimligiga nisbatan aniq va proporsional huquqiy mexanizmlarni shakllantirishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. FATF. Updated Guidance for a Risk-Based Approach: Virtual Assets and VASPs. – Paris: FATF, 2021. – 122 p.
2. Bernabe J.B. et al. Privacy-preserving solutions for blockchain: Review and challenges // IEEE Access. – 2019. – Vol. 7. – P. 164908–164940.

3. Chainlink. Blockchain Privacy vs. Anonymity. – 2026. – URL: <https://chain.link/article/blockchain-privacy-vs-anonymity>
4. 1inch Blog. Anonymity and privacy in crypto. – 2024. – URL: <https://blog.1inch.com/anonymity-and-privacy-in-crypto/>
5. Chan T. The nature of property in cryptoassets // Legal Studies. – Cambridge University Press. – 2022. – Vol. 43. – P. 1–24. DOI: 10.1017/lst.2022.53
6. Garcia Teruel R.M. The digital tokenization of property rights. A comparative perspective // Computer Law & Security Review. – 2021. – Vol. 41.
7. Marko D. Anonymity Technology in Virtual Assets: Scope, Limitations and Emerging Strategies. – TRACCC, George Mason University, 2022.
8. FATF. Targeted Update on Implementation of the FATF Standards on Virtual Assets and VASPs. – Paris: FATF, 2025.
9. Global Investigations Review. Navigating the regulatory landscape for virtual assets from a compliance perspective. – 2024.
10. UNIDROIT. Principles on Digital Assets and Private Law. – Rome: UNIDROIT, 2023.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.